IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934
IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 7,245
MAXSUS SON , VOLUME 5, ISSUE 1, 2023

PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARIDA O'G'IL VA QIZ BOLALAR O'RTASIDA IJTIMOIY TENGLIKNI TASHKIL ETISH METODIKASI

Muallif	**Baynaev Xayrulla Pardibaevich**
O'qish yoki ish joyi	**Toshkent viloyati Ohangaron tumani 2-son kasb-hunar maktabi yoshlar bilan ishlash bo'yicha direktor o'rinbosari**
Qabul qilindi	**03.10.2023**
Nashr qilindi	**06.10.2023**

Annotatsiya
Ushbu maqolada professional ta'lim muassasasida tahsil olayotgan o'g'il va qiz bolalarni turmish tarzi, ularning o'zaro ijtimoiy munosabatlardagi holati hamda tarbiyadagi mavjud pedagogik usullar tahlil qilingan.
Kalit so'zlar
Gender,o'g'il bola, qiz bola, jins, ijtimoiy tenglik.
Аннотация
В данной статье анализируются способы обучения юношей и девушек в профессиональном образовательном учреждении, их положение в социальных отношениях, а также существующие педагогические методы воспитания.
Ключевые слова
Гендер, мальчик, девочка, пол, социальное равенство.
Annotation
This article analyzes the methods of teaching boys and girls in a professional educational institution, their position in social relations, as well as existing pedagogical methods of education.
Key words
Gender, boy, girl, sex, social equality.

Professional ta'lim muassasalarida o'g'il va qiz bolalar o'rtasida ijtimoiy tengilk tarbiyasini tashkil etishni tadqiq qilishda - "gender" va "jins" tushunchalarining mazmun va hajmini aniqlash muhim axamiyatga ega. Chunki bugun ayrim adabiyotlarda "gender" atamasini "jins" atamasining sinonimi sifatida ham ishlatishmoqda.

Gender tushunchasining mazmuni, hajmiga nisbatan munosabatlar tahlil qilinganda biz uch yo'nalishni: biologik determinizm, ijtimoiy konstruktivizm va bioijtimoiy konstruktivizmni ko'ramiz.

Biologik determinizmda qizlar va o'g'il bolalar o'rtasidagi cheksiz farqlar sabablari asosan ularning biologik jinslar ekanligidan kelib chiqqan holda tushuntiriladi. Genderdagi ijtimoiy-ruhiy sifatlar ham biologik jinslar orqali izohlanadi. Bunda Z. Freyd psixoanalizi motivlari ham ishtirok etadi. Biologik determinizmda "gender" tushunchasi mazmun va hajmini belgilovchi omil berilgan va o'zgarmas biologik omildir. Biologik jins esa o'z-o'zi bilan chegaralangan universal tipdir. Mavjud biologik reallik jinsiy xilma-xilliklar dunyosiga olib kiradi va hukmron ikki jins to'g'risidagi ilmiy norrativga mos kelavermaydi. Inson organizmining jinslarga ko'ra xilma-xilligini uzliksiz spektr sifatida tushunish kerak. Biologiya bilan bog'liq barcha belgilar barcha o'g'il bolalarni barcha qiz bolalardan farqlash imkonini bermaydi. Chunki, ularda alohida olingan bir jinsning mohiyatini ifodalaydigan umumiy bir belgilar kompleksi mavjud emas.

Ijtimoiy konstruktivizm tarafdorlari esa genderning biologik omil ekanligiga befarq qaraydilar. Ularga gender rollar jamiyatda shakllanadi. Qizlar-qiz, o‘g‘ilbolalar-o‘g‘il bo‘lib tug‘ilmaydilar balki shunday bo‘lib shakllanadilar deb hisoblashadi. O‘g‘il va qiz bola ijtimoiy kategoriya sifatida turli xildagi ijtimoiy kontekstlarda yaratiladi va ishlatiladi, turli xildagi shakllarga ega bo‘lib turli mazmunlar bilan boyitiladi, qizlar va o‘g‘il bolalar o‘rtasidagi ko‘plab farq sabablari biologik farqga borib taqalmaydi. Agar gender farqlar ruhiy, madaniy va ijtimoiy kabi omillar bilan bog‘liq bo‘lsa jinsiy farqlar faqat jismoniy, anatomik, fiziologik farqlar bilan cheklanadi. Gender farqlar konstruksiyasi ijtimoiy konstruktivizmga asoslanadi. Ushbu model avtorlari odamlar o‘rtasidagi farqlarning tabiy ildizlariga befarqroq qaraydilar va ularni ijtimoiy jarayonlar bilan bog‘lab tushuntirishga harakat qiladilar.

Biosotsial determinizm tarafdorlari fikrlariga ko‘ra jumladan bizning fikrimizcha Professional ta’lim muassasasida o‘g‘il va qiz bolalar gender tarbiyasini tashkil etish va amalga oshirishda genderni ijtimoiy jins sifatida olib qarash va undan ushbu jarayonni belgilovchi tushuncha sifatida foydalanish maqsadga muvofiq. Chunki, odamlar dastlab biologik jinslar sifatida bir-birlaridan farq qiladilar. Ular tug‘ilishidan erkak va ayol bo‘lib tug‘iladilar. Ushbu farqlar asosida ularda ijtimoiy sifatlar shakllanadi va erkak-erkak, ayol-ayol rolini bajarishga kirishadi. Qizlar va o‘g‘il bolalar turmush tarzi, xatti-harakatlari, imkoniyatlari, xuquqlari, ularning jamiyatdagi o‘rni albatta ularning biologik jinsi asosida qurilgan sotsial konstruksiyadir.

“Gender” tushunchasining mazmuni kontekstda ilmiy kategoriya, ilmiy tadqiqotlar kategorial apparati elementi, mamlakatdagi ijtimoiy guruh va guruhlararo munosabat sub’ektini anglatuvchi hamda davlat va ijtimoiy guruhlar munosabatini, guruhlararo siyosiy munosabatni anglatuvchi kategoriya sifatida xam ishlatiladi. Chunki, u o‘zida gender munosabatlaridagi tengsizlikni tanqid qilish, mavjud ijtimoiy munosabatlarni o‘zgartirish, yangi ijtimoiy munosabatlarni gender tengliligiga ko‘ra qaror topdirishni talab etuvchi mazmunni tashiydi. Bugun “gender” jamiyatdagi tengsizlik bilan bog‘liq aholini guruhlarga bo‘lishda yordam beradigan kategoriya sifatida ham qaralmoqda. Bunda biologik jins ijtimoiy konstruksiyalashda ham qo‘l kelmoqda.

Professional ta’lim muassasasida bolalar gender tarbiyasida jinsiy va gender tarbiyasini farqlash muhim masala hisoblanadi.

Jinsiy tarbiya bolaning jinsiy fiziologik rivojlanish xususiyatlarini jinsiy tizim tashqi ko‘rinishi normadami, qaysi birlari normadan ortiq ekanligini bilish asosida amalga oshadi. Odatda jinsiy tarbiya bilan tibbiyot xodimlari shug‘illanib kelganlar. Mazkur tarbiya keng jarayon bo‘lib u o‘z ichiga bolani jinsiy hayot asoslari bilan tanishdirishni, unda gigienik ko‘nikmalarni shakllantirishni, bolani o‘z tanasi tuzilishi bilan tanishtirishni, erkak va ayol organizmlarining o‘ziga xosligini, ularning anatomik, fiziologik farqlanishini bilishi kabilarni oladi. Jinsiy differesiatsiyalanish bolaning o‘z jinsiga ta’luqli ekanligini bilishi va o‘zlashtirishidir.

Gender tarbiyasini amalga oshirishda qiz va o‘g‘il bolalarning anatomik, fiziologik o‘ziga xosliklari, ularning ruhiy farqlari, imkoniyatlari asosini tashkil etishini hisobga olish kerak. Ushbu ruhiy farq ijtimoiy omillar – ijtimoiy muhit, tarbiya ta’sirida shakllanadi. Natijada biz qiz va o‘g‘il bolalar tarbiyasini ularning tug‘ilishidan aniq bo‘lgan hodisa deb emas, balki tabiy imkoniyatlar va shunga mos va xos ijtimoiylashuvning murakkab aloqadorligi natijasida vujudga keladigan hodisa sifatida qarash imkoniga ega bo‘lamiz.

Ushbu jarayonda oila, PTMlar pedagogik jamoasining, vrach, bolani qurshab turgan muhitning roli benihoya katta. Mazkur jinsiy va gender tarbiyasi birinchidan, o‘ziga xoslikka ega

bo‘lgan mustaqil tarbiya yo‘nalishlari hisoblanadi. Har bir yo‘nalishning o‘ziga xos yonlashuvi, usuli va vositalari mavjud. Ikkinchidan esa, ularni bizning nazarimizga ko‘ra bir-biri bilan uzviy, chambarchas bog‘liqlikda, o‘zaro ta’sir asosida olib bormoq kerak. Demak, bunda vrach gender tarbiya asoslarini yaxshi o‘zlashtirgan, gender pedagogi esa vrach malakasiga ega bo‘lmog‘i kerak. Mana shunday uyg‘unlikda biz kutgan maqsadga erishamiz.

Bir bolaga yetti mahalla ota-ona degan maqol bekorga aytilmagan. Bunda oila, PTM, hovli, bolalarning o‘rtoqlari birligi muhimdir.

Tarbiya jarayonida ular shakllanishni kuzatib bazan nega qizim nafis bo‘lish o‘rniga qo‘pollashib bormoqda, uyalmaydi, o‘g‘il bolalarimiz esa bo‘shang, jismonan zaif, emotsional beqaror bo‘lib bormoqda degan xulosaga kelamiz.

Yaqin yillarga qadar o‘g‘il bollarimiz ko‘pchilik hollarda dars tayyorlash, ish, turli tuman xizmatlarni bajarish bilan band bo‘lar edilar. Uyga erkak mehmonlar kelganida ular xizmatda bo‘lishgan. Katta yoshdagi erkaklarning o‘tirish-turishini ko‘rganlar, gap so‘zlarini tinglaganlar. Ularning hayotga, turmushga, kasbga, obro‘-e’tiborga qiziqishi ortgan va qanday qilib yigit bola bo‘lib qolganliklarini ham hatto sezmay qolishgan. Qiz bolalar ham xuddi shunday. Bunda gender tarbiyasi haqida hatto biror so‘z ham aytilmagan.

Bugun Professional ta’lim muassasalarida bolalar tarbiyasi bir qator murakabliklar bilan bog‘liq. Bulardan birinchisi, ularni oilari, buvilari, ta’lim muassasalardagi o‘qituvchilari, psixolog, poliklinikadagi vrach tarbiyalaydilar. Bu holat ayniqsa o‘g‘il bolalarning shakllanishiga o‘ziga xos ta’sir kuchini o‘tkazmoqda. O‘g‘il bolalar yigitlarga o‘xshab qiyin hollarda turib berolmay qolmoqdalar. Hatto, nikohdan keyin xam u oila boquvchisi rolini bajarolmay iste’molchi rolida ko‘rinmoqda.

Biz bilib-bilmay ularni jins rollariga o‘rgatmoqdamiz. Qabul qilingan umumtartib qoidalariga ko‘ra qiz bola qanday, o‘g‘il bola qanday bo‘lishligiga o‘rgatmoqdamiz. O‘g‘il bolalarning agressivligini kechirib, faolligini qo‘llab-quvvatlaymiz. Qizlarning esa ko‘ngilchan, hissiyotli, emotsional bo‘lishligini rag‘batlantiramiz. Kattalar rahbarligida ular kattalarga o‘xshab qiz va o‘g‘il bolalar bo‘lib o‘sishmoqda.

Ularning o‘g‘il yoki qiz bola bo‘lib shakllanishida ular tanlagan o‘yin, qiziqish, o‘y-xayollari katta rol o‘ynaydi. Bolalarning qiz yoki o‘g‘il bola bo‘lib shakllanishida oilaviy muhit, uning an’analari muhim ahamiyatga ega. Chunki, bolaligidan o‘g‘il bolalarga ota-onalar hamisha uning o‘g‘il bola ekanligini eslatib “Qani bek keling”, “O‘g‘il bola yig‘lamaydi”, “Sen qiz bola emassanku, qo‘rqadigan”, deb murojaat qilishadi. Qiz bolalarga ham shu yo‘sunda “Axir sen o‘g‘il bola emassanku”, “Ha qiz bolaga o‘xshab yursang bo‘lmaydimi, ayiqga o‘xshab yuramasdan”, deb tanbex berib o‘stirishadi.

Kuzatuvlarga ko‘ra o‘g‘il bolalarning o‘zlari to‘g‘risidagi baholari qiz bolalarnikiga nisbatan mo‘tadilroqdir. Bundan tashqari qiz bolalar o‘zlari to‘g‘risida bildirilgan fikr, baho, munosabatga jiddiy hissiyot bilan qaraydi. O‘g‘il bolalarga baho berishda esa juda aniqlik va ko‘rgazmalilik va isbot lozim.

Umuman ushbu holatlar bolalar tarbiyasida juda jiddiy ahamiyatga ega. Bolalarga tarbiya jarayonida berilgan baho, tanlovlarda sovrinlarning noxolis berilishi, o‘yinlarda rollarning adolatsiz tanlanishi va boshqalar bog‘cha yoshidanoq bolalarda umr bo‘yi tuzatib bo‘lmaydigan noxolis qarashning shakllanishiga sabab bo‘ladi. Mana hozir korrupsiyaga qarshi olib borilayotgan ishlarimiz samaradorligini yuqori deb bo‘lmaydi. Chunki bolalar bog‘cha yoshidan, maktabda, kollejda, oliy

ta’limda o‘sha adolatsizliklar orasida o‘sadilar. Ushbu qarashlarning o‘q tomiri bog‘cha yoshidan boshlanishini mutloq unutmaslik kerak.

Tarbiyada yana shunga ahamiyat berish kerakki qiz bolalar eshitib shakllanadi va eshitish stimuli ular kamolotida ustuvorlik qiladi. O‘g‘il bolalar esa ko‘proq ko‘rish, namoish qilinishga asoslangan vizual idrokga ko‘proq ahamiyat beradi. Shuning uchun ta’lim tarbiyada biz faqat aytib, tushuntirib emas, jonli ko‘rgazmali vosita-munosabatlardan keng foydalanishimiz kerak. Ushbu tadbirlar va ta’limda bolalarning o‘zlari ham faol ishtirok etishlari zarur. Ushbu mashg‘ulotlarda bolalarga savol bilan murojaat qilgan tarbiyachi birinchi javobni odatda qizlardan oladi. Qizlar savolga batafsil, shoshmasdan, mantiqli javob berishga harakat qiladi. Shunda biz ularni bo‘lmasdan toqat bilan tinglashga tayyor bo‘lishimiz kerak va javobni yanada chuqurlashtirishga harakat qilishimiz zarur.

O‘g‘il bolalar ko‘proq uzoq o‘ylab, uzun-yo‘liq qilib savolga javob beradi. Uzoq vaqt tortinib-qisinib javob berishga harakat qiladi. Shuning uchun ulardan qizlardan keyin savolga javob olish maqsadga muvofiqdir.

Dars davomida foydalaniladigan vositalar ham ahamiyatlidir. Masalan matematika darsida bolalar soldatlar, tanklar, moshinalardan foydalansa, qizlar to‘p va gullardan foydalanadilar. Jismoniy tarbiya darsalarida bir xil mashq va harakatlar uchun o‘g‘il va qizlarga turli talablar qo‘yib to‘g‘ri qilamiz. Dam olish paytlarida bolalar ko‘chalarni tuzatadi, tozalaydi. Qizlar esa xonalarni yig‘ishtiradi, ko‘chalarni supiradi. Mazkur harakat turlarini tashkil qilish bo‘yicha yondashuvlar turlicha bo‘lsada o‘g‘il va qiz bolalarga qo‘yilgan talablar umumiyligicha qoladi. Bolalar qadriyatlarni, xatti-harakat qoidalarini qanchalik ijodiy o‘zlashtirsalar kundalik turmush uchun zarur ko‘nikmalarni qancha ko‘p o‘rgansalar yashashlari oson kechadi. Hayotiy faoliyatning turli holatlarida foydalanish mumkin bo‘lgan barcha xilma-xil rollik bilim ulardan samarali foydalanishni shakllantirish, PTM o‘quvchilarida o‘zbek xalqining o‘g‘il va qiz farzandlar tarbiyasi to‘g‘risidagi an’analarini bilishi, bolalarda botirlik, cho‘rtkesarlik, jasurlik, ishonch, qizlarda sezgirlik, yaxshilik, nafislik, qayg‘urish kabi axloqiy sifatlarni rivojlantirishda qo‘l keladi. O‘g‘il va qiz bolalarda o‘zlariga nisbatan inson sifatida munosabatda bo‘lishlikni, o‘z ichki dunyosini namoyon qila olish va uni harakatga keltira olish qobiliyatlarini shakllantirishni, farqlanuvchi jinslar o‘rtasida tolerantlik madaniyatni shakllantirishni bog‘cha yoshdagi bolalar tarbiyasini tashkil qilishda asosiy tamoillardan biri sifatida olishimiz kerak.